



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 2

2026

G'ARB FALSAFASIDA GERMENEVTIK TAFAKKUR VA MULOQOT ETIKASI BOG'LIGINING O'RGANILISHI

Botirova Sevara Mamurovna

Namangan davlat pedagogika instituti , dotsent PhD

Annotatsiya

Mazkur maqolada G'arb falsafasida muhim o'rin tutgan hermenevtik tafakkur va muloqot etikasi o'rtasidagi uzviy bog'liq tamoyillar tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida hermenevtikaning asosiy printsiplari va muloqot etikasi konseptlari o'rganilib, ularning o'zaro ta'sir mexanizmlari aniqlanadi. Maqola zamonaviy falsafiy yondoshuvlar bilan bir qatorda ijtimoiy muloqotda yuzaga keladigan axloqiy muammolarni hal etishda hermenevtik tafakkurning ahamiyatini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: hermenevtik tafakkur, muloqot etikasi, G'arb falsafasi, axloqiy muloqot, hermenevtika, dialog, axloqiy printsiplar.

ИССЛЕДОВАНИЕ ВЗАИМОСВЯЗИ МЕЖДУ ГЕРМЕНЕВТИЧЕСКИМ МЫШЛЕНИЕМ И ЭТИКОЙ КОММУНИКАЦИИ В ЗАПАДНОЙ ФИЛОСОФИИ

Ботирова Севара Мамуровна

Наманганский государственный педагогический институт, доцент PhD

Аннотация

В данной статье анализируются взаимосвязанные принципы герменевтической мысли и этики коммуникации, сыгравшие важную роль в западной философии. В ходе исследования изучаются основные принципы герменевтики и концепции этики коммуникации, а также выявляются механизмы их взаимодействия. В статье показана важность герменевтической мысли в решении моральных проблем, возникающих в социальной коммуникации, наряду с современными философскими подходами.

Ключевые слова: герменевтическая мысль, этика коммуникации, западная философия, моральная коммуникация, герменевтика, диалог, моральные принципы.

A STUDY OF THE RELATIONSHIP BETWEEN HERMENEUTIC THOUGHT AND COMMUNICATION ETHICS IN WESTERN PHILOSOPHY

Botirova Sevara Mamurovna

Namangan State Pedagogical Institute , Associate Professor PhD

Abstract

This article analyzes the interrelated principles of hermeneutic thought and communication ethics, which have played an important role in Western philosophy. In the course of the research, the basic principles of hermeneutics and the concepts of communication ethics are studied, and the mechanisms of their interaction are identified. The article shows the importance of hermeneutic thought in solving moral problems arising in social communication, along with modern philosophical approaches.

Keywords: hermeneutic thought, communication ethics, Western philosophy, moral communication, hermeneutics, dialogue, moral principles.

Germenevtika G'arb falsafasida tushunish va talqin qilish jarayonlarini o'rganishga qaratilgan muhim yo'nalish bo'lib, ayniqsa axloqiy va muloqot sohalarida yangi yondoshuvlarni taklif qilmoqda. Muloqot etikasi esa insonlar o'rtasidagi axloqiy munosabatlar qoidalarini belgilaydi. Shu bois, ushbu ikki tushuncha o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish, zamonaviy muloqot jarayonlarini samarali va axloqiy asoslangan tarzda boshqarishga yordam beradi. Maqola aynan shu mavzuning dolzarbligi va ilmiy ahamiyatini ko'rsatishga qaratilgan. Tadqiqotda sifatli tahliliy metodlar qo'llanildi. Shuningdek, zamonaviy axloqiy nazariyalar va muloqot konsepsiyalari bilan solishtirma o'rganish olib borildi. Tadqiqotda empirik va nazariy ma'lumotlar o'zaro integratsiyasi asosida hermenevtik yondoshuvning muloqot etikasi sohasida amaliy ahamiyati aniqlangan.

G'arb falsafasida axloqshunoslikning muloqotga oid mezonlariga hermenevtik yondashuv faol tadqiq etilgan. Jumladan, J. L. Ostin, K. Popper, G. V. Hegel, D. G. Keller kabi mutafakkirlar ilmiy-tadqiqot faoliyatida kuzatiladi. Avvalo, hermenevtik tafakkur va muloqot etikasi bo'yicha asosiy falsafiy manbalar, jumladan Gadamer, Habermas va Buber kabi mutaxassislar asarlari chuqur tahlil qilindi.

Til va tafakkurning ijtimoiy mavjudlikdagi o'rni masalasi bugungi zamon falsafasining markaziy yo'nalishlaridan biriga aylandi. Bu masala nafaqat klassik sotsiologiya va lingvistika doirasida, balki zamonaviy fenomenologiya, psixolingvistika, kommunikativ epistemologiya va madaniyatshunoslik tadqiqotlarida ham chuqur tahlil qilinmoqda. Shu yo'nalishda J. Piaget, M. Bakhtin, A. Toffler, K. Popper, J. Kristeva, J. L. Austin, D. Davidson, va M. Castells qarashlari til va tafakkurning jamiyatdagi vositachilik mohiyatiga yangicha nazariy asos bergan. Jan Piaget tafakkurning ijtimoiy shakllanishini bola psixologiyasi orqali tahlil qilib, "til tafakkurning ijtimoiy mexanizmidir, chunki inson fikri muloqot orqali shakllanadi" deb yozadi. [1; 174-b.]

Unga ko'ra, tafakkur va til bir-biridan ajralmas: bola avval "tildan foydalangan holda ijtimoiy fikrlashni o'rganadi, so'ngra ichki nutq orqali o'z fikrini tuzadi". Bu qarash Vygotskiyning "ichki nutq" konsepsiyasiga yaqin, biroq Piaget tafakkurning individual shakllanish bosqichlarini asoslab, uni ijtimoiylashuv natijasi emas, balki ijtimoiy muloqot jarayonida yuzaga keladigan ontogenez sifatida ko'radi. J. L. Ostin esa tilning ijtimoiy mohiyatini "nutq aktlari" nazariyasi orqali talqin qiladi. U shunday yozadi: "Gapirish — bu biror amal bajarishdir". [2; 6-b.] Uningcha, har bir nutqiy ifoda ijtimoiy faoliyatning shaklidir, ya'ni til faqat fikrni ifoda etmaydi, balki ijtimoiy harakatni amalga oshiradi. Demak, tafakkur tilda voqelashgan harakatdir — u insonni ijtimoiy mavjudlikning faol subyekti sifatida belgilaydi.

A. Schütz fenomenologik ijtimoiy nazariyasida tilni "kundalik ongning muvofiqlik mexanizmi" deb ataydi. Schutzning fikricha, til insonning "ijtimoiy mavjudlikdagi orientatsiya vositasi", ya'ni jamiyatdagi harakatlarni ma'no bilan birlashtiruvchi umumiy platformadir. Teun A. van Dijk til va tafakkur o'rtasidagi ijtimoiy aloqani "diskurs tahlili" konsepsiyasida ochib beradi. U shunday yozadi: "Til – bu ijtimoiy kuchning ifodasi; u ijtimoiy ongni shakllantiruvchi va uni boshqaruvchi diskursdir". Dijk fikricha, til jamiyatdagi bilim, ideologiya va hokimiyat tizimlarini mustahkamlaydi, shuning uchun tafakkur tildagi ijtimoiy tuzilmalarning natijasidir.

Norman Fairclough ham bu fikrni davom ettirib, "til ijtimoiy hayotning semantik jihatdan shakllangan ko'zgusidir" deydi. Uningcha, tafakkur jamiyatdagi semantik diskurslar orqali shakllanadi, shuning uchun til nafaqat kommunikativ vosita, balki "ijtimoiy ongni shakllantiruvchi ideologik apparat"dir. Bronislav Malinovski antropologik tahlilda tilni ijtimoiy ehtiyoj bilan bevosita bog'laydi: "Til – bu faoliyatning vositasi, u har doim ijtimoiy harakatning ichida mavjud". Uning fikricha, til jamiyatdagi birlashuvning pragmatik

mexanizmi sifatida, tafakkur esa shu til orqali ijtimoiy hayotda maqsadli yo‘nalish oladi.

Donald Davidson bu fikrni rivojlantirib, tilning ijtimoiy tabiatini “radikal talqin” (radical interpretation) konsepsiyasi bilan bog‘laydi. Davidson fikricha, tilning ijtimoiy tabiati “anglash”ning o‘zida yashiringan — har bir muloqot bu ikki tafakkur o‘rtasidagi kelishuvni talab qiladi. M. Bakhtin esa tilni “dialogik mavjudlik”ning shakli sifatida talqin qilib, “til har doim boshqalik bilan suhbatdir” deb yozadi. [3; 21-b.] Shu bilan u til va tafakkur o‘rtasidagi aloqani “mavjudliklararo ijtimoiy munosabat” sifatida qayta belgilaydi. Uning fikricha, tafakkur tildan oldingi jarayonlar (sezgi, instinkt, affekt) orqali shakllanadi, biroq faqat til orqali ijtimoiy ongga aylanadi. Shu bois, til inson ongining ikki darajasini – individual (semiotik) va ijtimoiy (sintaktik) qatlamlarni birlashtiradi.

Karl Popper til va tafakkurni “uchinchi dunyo” nazariyasida konseptual asosda birlashtiradi. Unga ko‘ra, “til inson tafakkurining ob‘ektiv shaklga aylangan dunyosi”dir. [4; 109-b.] Popper uchun tafakkur individual emas — u tilda jamiyat tomonidan ishlab chiqilgan bilim tizimida yashaydi. Shu sababli, til “bilimni ijtimoiy muhitda saqlovchi va uzatuvchi mexanizm”ga aylanadi. Alvin Tofflerga ko‘ra, til endilikda tafakkurdan ajralmas axborot oqimining komponentiga aylangan: “Til orqali biz nafaqat o‘ylaymiz, balki axborotni qayta ishlab, ijtimoiy reallikni yangidan quramiz”. [5; 476-b.]

Manuel Kastells esa “axborot jamiyati” tushunchasida tilning ijtimoiy tafakkurdagi rolini global kommunikatsiya kontekstida tahlil qiladi. Kastellsning fikricha, raqamli davrda til ijtimoiy tafakkurning texnologik modellashtirilgan shakliga aylanib, “ma’nolarni transmilliy darajada birlashtiruvchi kod tizimi”ni yaratadi. G. V. Hegel tafakkur va tilning ijtimoiy mohiyatini dialektik birlikda ko‘radi. Hegel uchun til bu “mutlaq ruhning ijtimoiy ifodasi”, ya’ni inson tafakkurining ijtimoiy reallikka aylanadigan vositasi. Shu ma’noda, tafakkur tilning ichki qonuniyatlari orqali obyektivlashadi, til esa ruhiy mazmunni ijtimoiy shaklga keltiradi.

Amerikalik tilshunos Edvard Sapir va uning shogirdi Benjamin Li Uorf tilning tafakkurdagi nisbiylik nazariyasini ilgari suradilar. Demak, til nafaqat fikrni ifoda etuvchi vosita, balki tafakkurning shakllanishini belgilovchi ijtimoiy-madaniy omildir. Jorj Herbert Mead ijtimoiy psixologiyada tilning ijtimoiy funksiyasini “ramziy o‘zaro ta’sir” konsepsiyasi orqali tushuntiradi. Mead uchun tafakkur “ichki muloqot” shaklidir, u jamiyatdagi belgilar almashinuvi orqali shakllanadi. Bu yondashuv Habermasning “kommunikativ ong” nazariyasiga poydevor yaratdi. M. A. K. Hallidey tildagi ijtimoiylikni “sistemali-funksional grammatika” asosida izohlaydi. U yozadi: “Til jamiyatda mavjud bo‘lgan tajribani ifodalash vositasidir; har bir til inson faoliyatining ijtimoiy funktsiyalarini aks ettiradi”. [6; 29-b.] Uning fikricha, til uchta asosiy ijtimoiy funktsiyani bajaradi: tajribaviy (bilish), munosabatli (ijtimoiy aloqa) va matnli (madaniy kontekstda ma’no yaratish). Shu tarzda, tafakkur tilning ijtimoiy voqealashuvi sifatida talqin etiladi.

Jürgen Habermas tilni “ijtimoiy ongning ratsional shakli” sifatida tahlil etib, “til muloqot orqali ijtimoiy integratsiyani ta’minlaydi” deydi. Habermas uchun til – bu faqat kommunikatsiya emas, balki “rozilik ishlab chiqish vositasi”, ya’ni jamiyatdagi kelishuvlar va qarorlarning asosiy mexanizmi. Shu ma’noda, tafakkur til orqali “ijtimoiy muvofiqlashtirish” kuchiga ega bo‘ladi. M. Bakhtin tilning ijtimoiy mohiyatini “dialogiklik” tamoyili orqali ochib beradi: Bakhtin fikricha, tafakkur o‘zini tildagi dialogik harakatda ifodalaydi; shaxsning “men”i faqat “boshqa” bilan muloqotda shakllanadi.

D. G. Keller esa kognitiv lingvistika doirasida tilni “ongning ijtimoiy materializatsiyasi” sifatida ko‘rib, “til ijtimoiy tajribani modellashtiruvchi ongiy tizimdir” deb yozadi. Uning fikricha, tafakkur til orqali ijtimoiy amaliyotning semantik modelini yaratadi, bu esa tilni insoniyat madaniyatining “kollektiv ong shakli”ga aylantiradi. Shunday qilib, til va tafakkur insonning ijtimoiy mavjudligining o‘zaro to‘ldiruvchi ikki jihati sifatida namoyon

bo'ladi. Hegel va Sossyur uchun til tafakkurning tashqi shakli; Sapir va Uorfda u madaniy tafakkurning me'ori; Mead va Habermasda u ijtimoiy muloqot mexanizmi; Halliday va Kellarda esa u insoniyat tajribasining semiotik modeli sifatida talqin etiladi. Ularning barchasi bir jihatni tasdiqlaydi: til – bu jamiyatning “fikrlovchi muhitidir”, unda inson o'zining ongiy, axloqiy va madaniy mavjudligini yaratadi.

Yuriy Lotman o'zining “semiosfera” konsepsiyasida tilni “madaniyatning yaratuvchi omili” sifatida talqin etadi. Lotman uchun til — bu ijtimoiy tafakkurning yaratuvchi muhiti, unda har bir yangi ma'no avvalgi ma'nolar bilan muloqotda hosil bo'ladi. Shu bois, til “madaniyatni davom ettiruvchi aqliy muhit” sifatida namoyon bo'ladi. Roman Jakobson tildagi ijtimoiylikni kommunikativ funktsiya orqali tahlil qiladi.

Jakobsonning fikricha, tilning kommunikativ kuchi jamiyatning madaniy muvofiqligini ta'minlaydi, shuning uchun “so'zlashuv harakati ijtimoiy tizimning barqarorligini ifodalaydi”. Klod Levi-Stross tilni inson tafakkurining madaniy arxetipi sifatida ko'rib, shunday deydi: “Til – bu inson jamiyatining ongi va strukturasidir”. [7; 47-b.] U tilni ijtimoiy simvolik tizim sifatida talqin etib, u orqali jamiyat o'zining ramziy tartibini yaratadi. Levi-Strossning strukturaviy antropologiyasi tilda tafakkur jarayonining kollektiv xarakterini ochib beradi.

Xulosa

Germenevtika tushunish va talqin jarayonlarini chuqurlashtirish orqali insonlar o'rtasidagi muloqotni yanada samarali va axloqiy jihatdan to'g'ri olib borishga imkon yaratadi. Muloqot etikasi esa ushbu jarayonda axloqiy prinsiplar va huquqiy me'yorlarni belgilab beradi, shuning natijasida insonlar o'rtasidagi o'zaro hurmat va tushunish kuchayadi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, germenevtik tafakkur muloqot etikasi mazmunini boyitadi, muloqot jarayonining anglashiluvchanligi va adolatlilik darajasini oshiradi. Shunday qilib, bu ikki soha o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, zamonaviy jamiyatda muloqotning ahloqiy asoslarini mustahkamlashda muhim vosita hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Piaget, J. Le langage et la pensée chez l'enfant. — Paris: Delachaux et Niestlé, 1923. — 174 p.
2. Austin, J. L. How to Do Things with Words. — Oxford: Clarendon Press, 1962. p. 6
3. Бахтин, М. М. Проблемы поэтики Достоевского. — Москва: Советский писатель, 1963. — 321 б.
4. Popper, K. Objective Knowledge: An Evolutionary Approach. — Oxford: Clarendon Press, 1972. p. 109.
5. Castells, M. The Rise of the Network Society. — Oxford: Blackwell, 1996. p. 476.
6. Halliday, M. A. K. Language as Social Semiotic. — London: Edward Arnold, 1978. p. 29.
7. Lévi-Strauss, C. La pensée sauvage. — Paris: Plon, 1962. p. 47.